

**“TASDIQLAYMAN”**  
**“Ilg‘or” Davlat korxonasi direktori v.b**  
**J. Usmanov**  
**24 ” 2022 yil**

**“Ilg‘or” davlat korxonasi 2022 yilda korxonaning ishchi-xodimlariga ishlab chiqarish va mexanik shikastlanishlardan himoya qilish uchun maxsus yozgi (mavsumiy) hamda maxsus issiq qishki kiyim-bosh va boshqa shaxsiy himoya vositalarini o‘lchamlarini o‘lchab, tikib tayyorlab berish xizmati bo‘yicha**

**TANLOV HUJJATLARI**

**Buyurtmachi: «Ilg‘or» Davlat korxonasi**

**Samarqand – 2022 yil**

## MUNDARIJA

I. Tanlov ishtirokchisi uchun yo'l-yo'riq.

II. Tanlovning texnik qismi.

## I. TANLOV ISHTIROKCHISI UCHUN YO‘L-YO‘RIQ

|   |                         |     |   |
|---|-------------------------|-----|---|
| 1 | <b>Umumiy qoidalar.</b> | 1.1 | Mazkur tanlov hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 22.04.2021 yildagi O‘RQ-684-son (keyingi o‘rinlarda – Qonun) va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20.02 dagi “Loyiha oldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3550 sonli qarori (keyingi o‘rinlarda – qaror) talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.  |
|   |                         | 1.2 | Tanlov predmeti: <b>“Ilg‘or” davlat korxonasi 2022 yilda korxonaning ishchi-xodimlariga ishlab chiqarish va mexanik shikastlanishlardan himoya qilish uchun maxsus yozgi (mavsumiy) hamda maxsus issiq qishki kiyim-bosh va boshqa shaxsiy himoya vositalarini o‘lchamlarini o‘lchab, tikib tayyorlab berish xizmati bo‘yicha shartnomani tuzish huquqi.</b>  |
|   |                         | 1.3 | <p><b>1) Ishlab chiqarish va mexanik shikastlanishlardan himoyalash uchun erkaklar va ayollar uchun yozgi (mavsumiy) maxsus kiyim-bosh. Kamzul va shimlar, bosh kiyim (кепка) jamlanmasi. Korxonasi nomi ko‘rsatilgan yozuvi (logotip) bilan</b></p> <p><b>2) Ishlab chiqarish va mexanik shikastlanishlardan himoyalash uchun to‘q moviy rangli ayollar uchun ish kiyimi (xalat). korxonasi nomi ko‘rsatilgan yozuvi (logotip) bilan.</b></p> <p><b>3) Ishlab chiqarish va mexanik shikastlanishlardan himoyalash uchun erkaklar va ayollar uchun (oq rangli) ish kiyimi (xalat). Korxonasi nomi ko‘rsatilgan yozuvi (logotip) bilan.</b></p> <p><b>4) Past haroratlardan himoya qiluvchi hamda ishlab chiqarish va mexanik shikastlanishlardan himoya qiluvchi erkaklar va ayollar uchun maxsus issiq qishki kiyim-bosh. (qishki issiq kurtka va issiq shimlar). Korxonasi nomi ko‘rsatilgan yozuvi (logotip) bilan.</b></p> <p><b>5) Harbiylashtirilgan qo‘riqlash xizmati xodimlari uchun ishlab chiqarish va mexanik shikastlanishlardan himoyalovchi erkaklar va ayollar uchun yozgi (mavsumiy) KOMUFLYAJLI maxsus kiyim-bosh. Kamzul va shimlar, futbolka va bosh kiyim (кепка) jamlanmasi “O‘ZDAVZAXIRA” yozuvi (logotip) hamda tamg‘a (шеврон) bilan.</b></p> <p><b>6) A) Gazelektrpayvandchi uchun himoya brezent kiyimi (kurtka-shim) (костюм-брюк брезентовый для сварщика)</b></p> <p><b>B) Gazelektrpayvandchi uchun himoya qo‘lqobi (краги спилковые для сварщика)</b></p> <p><b>7) Brezent asosdagi ikki yoki uch barmoqli issiq qo‘lqoplar.</b></p> <p>Tanlovning maksimal qiymati 83 376 500,0 so‘mni tashkil qiladi.</p> <p>Tanlov taklifida ko‘rsatilgan narxlar oxirgi qiymatdan yuqori bo‘lmasligi kerak.</p> |
|   |                         | 1.4 | Xizmat ko‘rsatish bo‘yicha texnik topshiriqlar tanlov hujjatlarining texnik qismida keltirilgan.  |

|   |                                  |     |  |
|---|----------------------------------|-----|--|
| 2 | <b>Tanlov ishtirokchilari</b>    | 2.1 | <p>«Ilg'or» Davlat korxonasi tanlov buyurtmachisi (keying o'rinlarda "Buyurtmachi") hisoblanadi.</p> <p>"Buyurtmachi" manzili: Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani, Juma shahar, Tinchlik kuchasi 54-uy. 140500</p> <p>"Buyurtmachi" ning rekvizitlari: ATB "ASIA ALLIANCE BANK" Samarqand filiali, MFO: 01143, STIR: 200764999, hisob raqam: 23404000500440885321</p>  |
|   |                                  | 2.2 | <p>email: <a href="mailto:ilgor@udz.uz">ilgor@udz.uz</a> тел. (66) 240-12-04</p>   |
|   |                                  | 2.3 | <p>«Ilg'or» Davlat korxonasi Tanlov komissiyasi tanlov buyurtmachisi (keyingi o'rinlarda "Ishchi organ") hisoblanadi.</p> <p>"Buyurtmasi" manzili: Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani, Juma shahar, Tinchlik kuchasi 54-uy. 140500</p>   |
|   |                                  | 2.4 | <p>Davlat xaridini tanlash orqali amalga oshirish uchun davlat buyurtmachisining xodimlari orasidan kamida besh nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi.</p>  |
| 3 | <b>Tanlov ishtirokchilari</b>    | 3.1 | <p>Tanlovda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar istalgan yuridik shaxslar, shu jumladan, kichik biznes sub'ektlari ishtirok etishi mumkin (4.2 badda keltirilgan shaxslar bundan mustasno).</p>  |
| 4 | <b>Tanlovni o'tkazish sharti</b> | 4.1 | <p>Tanlovda ishtirok etish uchun, tanlov ishtirokchisi quyidagilarni amalga oshirishi lozim:</p> <p>a) tanlov shartlari bilan tanishish uchun maxsus axborot portalida joylashtirilgan tanlov hujjatlarining elektron nusxasini olish (ko'chirish);</p> <p>b) tanlov hujjatlar shartlariga muvofiq tanlov hujjatlarini topshirish.</p>   |
|   |                                  | 4.2 | <p>Quyidagi ishtirokchilarning tanlovda qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- qayta tashkil qilinish, tugallanish yoki bankrotlik bosqichini boshidan kechirayotgan;</li> <li>- "Buyurtmachi" bilan sudda yoki hakamlik sudda tortishayotgan;</li> <li>- Nohalol ijrochilarning yagona ro'yxatiga kiritilgan;</li> <li>- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha qarzdorligi bor;</li> <li>- imtiyozli soliq rejimini beruvchi va/yoki moliyaviy amaliyotlarni o'tkazishda ma'lumotlarni oshkor qilish va berishni ko'zda tutmaydigan davlatlar yoki hududlarda (offshor zonalar) ro'yxatdan o'tgan va bank hisobraqamlariga ega bo'lgan.</li> </ul> |
|   |                                  | 4.3 | <p>Buyurtmachi quyidagi hollarda ishtirokchini xarid qilish taomilida ishtirok etishdan chetlashtiradi:</p> <p>Ishtirokchi to'g'ridan to'g'ri yoki vositali tarzda buyurtmachining, yoki boshqa davlat organining hozirgi mansabdor shaxsiga yoki sobiq xodimiga davlat xaridlari jarayonida biron-bir harakatni amalga oshirish, qaror qabul qilish yoki biron-bir tanlov taomilini qo'llashga ta'sir ko'rsatish maqsadida har qanday shakldagi mukofot, ishga olishni yoki har qanday qimmatbaho buyum yoki xizmat ko'rsatishni taklif qilgan, bergan yoki bunga rozi bo'lgan taqdirda;</p>  |
|   |                                  | 4.4 | <p>ishtirokchi adolatsiz tanlov ustunligiga ega bo'lsa yoki qonunga zid bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lsa.</p>  |
| 5 | <b>Tanlov tili.</b>              | 5.1 | <p>Tanlov taklifi, ishtirokchi va buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladigan u bilan bog'liq bo'lgan barcha yozishmalar, hujjatlar o'zbek (lotin) tilida bo'lishi kerak.</p>   |

|   |  |     |  |
|---|--|-----|--|
| 6 | <b>Tanlov g'olibini aniqlash va uni rasmiylashtirish tartibi</b> | 6.1 | Takliflarni taqqoslash natijalariga ko'ra xarid komissiyasi tanlash g'olibini aniqlaydi va tanlash o'tkazish natijalarini bayonnomada aks ettiradi.  |
|   |  | 6.2 | Xarid komissiyasining qarori bilan tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq g'olibning taklifidan keyingi eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi sifatida e'tirof etilgan zaxiradagi g'olib aniqlanishi mumkin.  |
|   |  | 6.3 | <p>Bayonnoma davlat buyurtmachisi tomonidan u rasmiylashtirilgan kunda davlat xaridlarining elektron tizimiga muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirilishi kerak. Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushmagan bo'lsa, davlat buyurtmachisi va xarid komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi.</p> <p>Muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e'tirozlar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.</p> <p>Tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushganda, xarid komissiyasi e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.</p> <p>Davlat buyurtmachisi tomonidan xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to'g'risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi bayonnomasi rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.</p> <p>Tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab uch ish kundan kechiktirmay joylashtiriladi.</p> |
|   |  | 6.4 | <p>Tanlov ishtirokchisi:</p> <p>taqdim qilinayotgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyliги va ishonchliligi uchun ma'sul hisoblanadi;</p> <p>taqdim qilingan taklifni bunday takliflarni berish muddati tugaguncha qaytarib olish yoki unga o'zgartirish kiritishga haqli.</p>   |
|   |  | 6.5 | Tanlov taklifi tanlov shartlariga mos bo'lgan va quyidagi ma'lumotlarni qamrab oluvchi narxga oid qismdan tashkil topadi: xizmatning nomlanishi, xizmat ko'rsatish qiymati, yakuniy summa, to'lov shartlari, taklifning amal qilishi muddati va h.z.   |
|   |  | 6.6 | Ishtirokchi shuningdek Taklifning 1 nusxasini tashqi tashuvchi (kompakt-disk, flesh-xotira va b.) tayyorlab qo'yishi zarur, unda butun tanlov hujjatlari skaner qilingan, rahbar imzosi va tashkilot muhri bilan tasdiqlangan holda taqdim qilinishi mumkin.   |
|   |  | 6.7 | Tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladi.  |
|   |  | 6.8 | Davlat buyurtmachisi tomonidan tanlash bo'yicha xarid qilish   |

|          |                            |      |  |
|----------|----------------------------|------|--|
|          |                            |      | hujjatlarida g'olib shartnomaning shartlari bajarilishi ta'minotini taqdim etganidan keyin shartnoma tuzilishini nazarda tutuvchi shart qo'yilishi mumkin.   |
|          |                            | 6.9  | <p>G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.</p> <p>Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishni rad etgan bo'lsa, davlat buyurtmachisi ushbu Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi yoxud elektron do'kon (ushbu Qonunning 49-moddasida belgilangan mezonlar doirasida) yoki auksion orqali xaridni amalga oshirishi mumkin.</p> |
|          |                            | 6.10 | Tanlov takliflari qabul qilish elektron tarzda bo'ladi.  |
| <b>7</b> | <b>Shartnoma tuzilishi</b> | 7.1  | Eng yaxshi takliflarni tanlash natijalari bo'yicha shartnoma elektron xarid bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va shartnoma tuzilayotgan ishtirokchi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi.   |
|          |                            | 7.2  | G'olib shartnoma tuzishdan bosh tortgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narxda (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan taklif natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi. tuzishdan bosh tortishi mumkin. Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishdan bosh tortsa, davlat buyurtmachisi elektron portal orqali qaytadan joylashtiradi.                 |
|          |                            | 7.3  | Eng yaxshi takliflarni tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.   |